

**O'ZBEKISTONDA KUCH TUZILMALARI HAMKORLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH: HARBIY OPERATSIYALARDAGI MUVOFIQLIK VA
SAMARADORLIK**

Jo‘rayev Bobur Narzullayevich

Mustaqil izlanuvchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14871849>

Annotatsiya. Ushbu ishda O'zbekistonda qurolli kuchlar va kuch tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Milliy xavfsizlikni ta'minlashda turli idoralar o'rtasidagi muvofiqlik va birgalikdagi harakatlar muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotda boshqaruv tizimining zaif integratsiyasi, texnologik rivojlanishning sustligi, axborot almashinuvi va kiberxavfsizlikning zaif jihatlari kabi muammolar aniqlangan. Shuningdek, xalqaro tajribaga asoslanib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ular, jumladan, yagona boshqaruv tizimini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, qo'shma mashg'ulotlarni kuchaytirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishni o'z ichiga oladi. Ishda Qozog'iston tajribasi bilan taqqoslash orqali O'zbekistonning kuchli va zaif tomonlari yoritilgan. Maqolada milliy mudofaa tizimini yanada barqarorlashtirish yo'lida muhim strategik yo'nalishlarni belgilaydi hamda unda berilgan tavsiyalarini amaliyatga tatbiq etish orqali O'zbekiston mintaqadagi yetakchi harbiy salohiyatga ega davlat sifatida o'z mavqeini yanada mustahkamlashi mumkin.

Kalit so'zlar: kuch tuzilmalari hamkorligi, milliy xavfsizlik, yagona boshqaruv tizimi, axborot almashinuvi, kiberxavfsizlik, texnologik modernizatsiya, qo'shma mashg'ulotlar, xalqaro harbiy hamkorlik, mudofaa strategiyasi, razvedka tizimlari, mintaqaviy barqarorlik, harbiy operatsiyalar.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ СИЛОВЫХ СТРУКТУР В
УЗБЕКИСТАНЕ: КООРДИНАЦИЯ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВОЕННЫХ ОПЕРАЦИЙ**

Аннотация. В данной работе проанализированы вопросы развития сотрудничества между вооруженными силами и силовыми структурами Узбекистана.

Согласованность и совместные действия между различными ведомствами рассматриваются как важный фактор обеспечения национальной безопасности. В исследовании выявлены такие проблемы, как слабая интеграция системы управления, медленное технологическое развитие, слабые стороны обмена информацией и кибербезопасности. Также разработаны предложения и рекомендации, основанные на международном опыте. Они включают в себя совершенствование единой системы управления, внедрение современных технологий, усиление совместных учений и расширение международного сотрудничества. В работе освещены сильные и слабые стороны

Узбекистана путем сравнения с опытом Казахстана. Статья определяет важные стратегические направления дальнейшей стабилизации национальной оборонной системы, и путем применения данных в ней рекомендаций на практике Узбекистан может еще больше укрепить свои позиции в качестве государства с ведущим военным потенциалом в регионе.

Ключевые слова: сотрудничество силовых структур, национальная безопасность, единая система управления, обмен информацией, кибербезопасность, технологическая модернизация, совместные учения, международное военное сотрудничество, оборонная стратегия, разведывательные системы, региональная стабильность, военные операции.

ENHANCING COLLABORATION AMONG SECURITY FORCES IN UZBEKISTAN: COORDINATION AND EFFECTIVENESS IN MILITARY OPERATIONS

Abstract. This work analyzes the development of cooperation between the armed forces and security structures in Uzbekistan. Coordination and joint actions among various agencies are considered crucial factors in ensuring national security. The study identified problems such as weak integration of the management system, slow technological development, inadequate information exchange, and vulnerabilities in cybersecurity. Additionally, based on international experience, proposals and recommendations have been developed. These include improving the unified management system, implementing modern technologies, enhancing joint training exercises, and expanding international cooperation. The work highlights Uzbekistan's strengths and weaknesses by comparing them with Kazakhstan's experience. The article outlines important strategic directions for further stabilizing the national defense system, and by implementing the given recommendations, Uzbekistan can further strengthen its position as a state with leading military potential in the region.

Keywords: security structures cooperation, national security, unified management system, information exchange, cybersecurity, technological modernization, joint exercises, international military cooperation, defense strategy, intelligence systems, regional stability, military operations.

Kirish

Bugungi globallashgan dunyoda milliy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda qurolli kuchlar va kuch tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy harbiy operatsiyalar murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ularda turli tuzilmalar o'rtasidagi samarali muvofiqlik va o'zaro yordam hal qiluvchi o'rinn tutadi. O'zbekiston Respublikasida qurolli kuchlar va kuch tuzilmalari (ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar, milliy xavfsizlik kabi idoralar) o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish masalasi harbiy samaradorlikni oshirishning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rilmogda.

Harbiy operatsiyalarda kuch tuzilmalari hamkorligining ahamiyati

Harbiy operatsiyalar zamonaviy xavfsizlikni ta'minlashda asosiy vositalardan biri bo'lib, ularning muvaffaqiyati ko'p jihatdan turli kuch tuzilmalari o'rtasidagi samarali hamkorlikka bog'liq. Qurolli kuchlar, ichki ishlar vazirligi, favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa idoralar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlik bugungi tahdidlar – terrorizm, ekstremizm, tabiiy ofatlar va pandemiyalar oldini olish va bartaraf etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy dunyo harbiy va noharbiy tahdidlarning uyg'unlashgan shakliga, ya'ni gibrild urushlarga guvoh bo'lmoqda. Bunday sharoitda kuch tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlikning strategik ahamiyati yanada ortadi. Masalan, gibrild urushlar jarayonida axborot urushlari, kiberhujumlar, iqtisodiy sanksiyalar va an'anaviy harbiy harakatlarning birlashganligi ko'zga tashlanadi. Bu murakkab tahdidlarga qarshi samarali kurashish uchun kuch tuzilmalari o'rtasida real vaqt rejimida axborot almashinushi, tezkor qaror qabul qilish va birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish zarur. Shu bilan birga, turli idoralar o'z funksiyalariga ko'ra bir-birini to'ldiradi: ichki ishlar organlari dushmanlarni aniqlash va qo'lga olishga ixtisoslashgan bo'lsa, qurolli kuchlar keng ko'lamli operatsiyalarni amalga oshiradi.

Favqulodda vaziyatlar sharoitida, masalan, tabiiy ofatlar yoki texnogen falokatlar paytida, kuch tuzilmalari hamkorligi aholining xavfsizligini ta'minlash va ofat oqibatlarini bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Harbiy texnika va kuchlarning qutqaruv operatsiyalarida ishtiroy etishi, favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan birgalikda gumanitar yordam tashkil etilishi samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Xuddi shunday, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda kuch tuzilmalari o'rtasidagi muvofiqlik dushmaniga qarshi samarali kurash olib borish va milliy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu borada ichki xavfsizlik xizmatlari tomonidan aniqlangan ma'lumotlar va razvedka axborotlari qurolli kuchlarning harbiy amaliyotlarini rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Harbiy operatsiyalarda kuch tuzilmalari hamkorligi texnologiyalar va innovatsiyalarning rivojlanishi bilan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Sun'iy intellekt, dronlar va yuqori aniqlikdagi qurollardan foydalanish orqali kuch tuzilmalari operatsiyalarni yanada samarali olib borishi mumkin. Masalan, sun'iy yo'l dosh texnologiyalari yordamida turli idoralar real vaqt rejimida ma'lumot olish va uni tezkorlik bilan tarqatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, zamonaviy kiberxavfsizlik vositalaridan foydalanish kuch tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytiradi va kiber tahdidlarga qarshi samarali kurashish imkonini yaratadi.

O'zbekistonda kuch tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish borasida bir qator ijobjiy qadamlar tashlanmoqda. Yagona boshqaruv tizimi joriy qilinib, bu orqali harbiy va noharbiy idoralar o'rtasidagi muvofiqlik ta'minlanmoqda. Muntazam ravishda o'tkazilayotgan qo'shma o'quv-mashg'ulotlar turli kuch tuzilmalari xodimlarining o'zaro kelishilgan harakatlarini

kuchaytiradi va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi. Bundan tashqari, kuch tuzilmalari o'rtasida axborot almashish tizimlarining rivojlantirilishi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va qonunchilik bazasining mustahkamlanishi bu jarayonni yanada samarali qilmoqda.

Umuman olganda, harbiy operatsiyalarda kuch tuzilmalari hamkorligi milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biridir. Bu nafaqat harbiy muvaffaqiyatlarni, balki xalqaro miqyosdagi tahdidlarga samarali qarshi turishni ham ta'minlaydi. Kuch tuzilmalari o'rtasidagi uzviy va tizimli hamkorlik nafaqat bugungi, balki kelajakdagи xavfsizlik muammolarini hal qilishda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu boisdan, ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar va chora-tadbirlar zamonaviy tahdidlarga munosib javob berish uchun strategik ahamiyatga ega.

O'zbekistonda qurolli kuchlar va kuch tuzilmalari hamkorligini kuchaytirish

O'zbekistonda qurolli kuchlar va kuch tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlik milliy xavfsizlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Bu hamkorlik terrorizm, ekstremizm, tabiiy va texnogen ofatlarga qarshi samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish, resurslarni oqilona taqsimlash hamda harbiy va noharbiy tahdidlarga tezkor javob berishni ta'minlashga xizmat qiladi. Mamlakatda qurolli kuchlar va ichki ishlар, favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda davlat idoralari o'rtasidagi muvofiqlikni oshirish maqsadida yagona boshqaruв tizimi joriy qilinmoqda, qo'shma o'quv-mashg'ulotlar o'tkazilmoqda va zamonaviy texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Xalqaro tashkilotlar va qo'shni davlatlar bilan hamkorlik orqali mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga ham e'tibor qaratilmoqda. Bu sa'y-harakatlar O'zbekistonning mudofaa qobiliyatini kuchaytirish va xalqaro tahdidlarga munosib javob berish imkonini oshirish maqsadida qurolli kuchlar va kuch tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

Yagona boshqaruв tizimini joriy etish:

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida yagona boshqaruв tizimini joriy etish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu chora-tadbirlar milliy xavfsizlikni ta'minlash, qo'shnlarning jangovar tayyorgarligini oshirish va zamonaviy tahdidlarga tezkor javob berish maqsadida olib borilmoqda.

2023-yil 31-yanvarda qabul qilingan Prezident farmoniga muvofiq, Qurolli Kuchlarni qurollantirish bo'yicha Davlat komissiyasi tashkil etildi. Uning asosiy vazifalari qatorida maxsus organlarni qurol-yarog', harbiy va maxsus texnika bilan ta'minlash bo'yicha yaqin, o'rta va uzoq muddatli istiqbollarni belgilash hamda kompleks dasturlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash kiradi.

Bundan tashqari, 2022-yil 29-noyabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qaror bilan Qurolli Kuchlar sohasidagi milliy qonunchilik bazasini tizimlashtirish va ortiqcha

hamda o‘z huquqiy ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarni bekor qilish choralari ko‘rildi.

Ushbu islohotlar doirasida Qurolli Kuchlarning tezkor boshqaruvini amalga oshirish, zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnikalar bilan ta’minlash hamda harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar qabul qilindi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yagona axborot markazini joriy etish to‘g‘risida topshiriq berilgan. Ushbu topshiriq bo‘yicha hozirda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan aloqa liniyalarini tashkil etish va ma’lumotlarni saqlash va qayta ishslash markazini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Biroq O‘zbekistonda yagona boshqaruv tizimi hali to‘liq integratsiyalashmagan. Harbiy va noharbiy kuch tuzilmalari o‘rtasida muvofiqlashtirish yetarli darajada samarali yo’lga qo‘yilmagan, bu esa tezkor qarorlar qabul qilishni qiyinlashtiradi.

Qo‘shma o‘quv-mashg‘ulotlar:

Qurolli kuchlar va kuch tuzilmalarining harbiy tayyorgarligini oshirish maqsadida muntazam ravishda qo‘shma mashg‘ulotlar o‘tkazilmoqda. Bu mashg‘ulotlar orqali turli idoralar o‘zaro harakatlanish, tezkor qaror qabul qilish va birgalikdagi operatsiyalarni amalga oshirishda tajriba orttirmoqda.

Shuningdek Mudofaa vazirligi tarkibida ham bir qator xalqaro hamkorlikda musobaqalar va taktik o‘quv mashg‘ulotlari, o‘zaro tajriba almashish maqsadida forumlar o‘tkazib kelinmoqda. Jumladan, 2024-yil 23-sentabr kuni Xitoy Xalq Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy-tibbiyot mutaxassislari O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali hamda Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasida mahorat darslari va hamkorlikdagi jarrohlik amaliyotlarini o‘tkazish maqsadida tashrif buyurishgan. Bundan tashqari Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sstligi doirasidagi “Toshkent-2024” xalqaro harbiy tibbiyot konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

2024-2027-yillarda Qurolli Kuchlar kinologiya bo‘linmalarining faoliyatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasi ishlab chiqilgan. Unda ko‘rsatib o‘tilgan chora-tadbirlarning ijrosini o‘z vaqtida va samarali ta’minlash maqsadida Mudofaa vazirligi Mutaxassis va xizmat itlarini tayyorlash markazi, Bojxona qo‘mitasi Milliy kinologiya markazi, Ichki ishlar vazirligi Maxsus tayyorgarlik o‘quv markazi hamda IIV naslchilik pitomnigi o‘rtasida kinologiya xizmati faoliyati samaradorligini yanada oshirish, uni rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida o‘zaro hamkorlik memorandumi imzolandi.

Ma’lumot almashish tizimlari va zamonaviy texnologiyalar:

Harbiy operatsiyalarda muvaffaqiyat ma’lumotning tezkor va aniq yetkazilishi bilan bog‘liq. Shu sababli, O‘zbekiston milliy xavfsizlik tizimida kuch tuzilmalar o‘rtasidagi axborot

almashinuvi mexanizmlari takomillashtirilmoqda. Xitoy Xalq Respublikasining Hytera kompaniyasi bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari zamonaviy radioaloqa tizimlari bilan doimiy ravishda rivojlantirib kelinmoqda. Hozirda respublikaning butun hududida radioaloqa to‘liq ta’minlangan.

Harbiy operatsiyalar samaradorligini oshirish uchun qurolli kuchlar va kuch tuzilmalarining texnologik qurollanish darajasini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Biroq hozirgi zamonaviy harbiy operatsiyalarda dronlar, havo hujumidan mudofaa tizimlarining ahamiyati katta bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistonda hujum qiluvchi va razvedka dronlari mavjud lekin mahalliy ishlab chiqarish o‘z natijasini bermaydi.

Taklif va tavsiyalar

O‘zbekistonda kuch tuzilmalari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun yagona boshqaruva tizimini takomillashtirish masalasiga e’tibor qaratish lozim. Harbiy va noharbiy tuzilmalar o‘rtasida samarali muvofiqlikni ta’minalash uchun markazlashtirilgan boshqaruva tizimi yaratilib, bu tizimda real vaqt rejimida qaror qabul qilish imkonini beruvchi zamonaviy texnologiyalar keng joriy qilinishi zarur.

Axborot almashinuvi va kiberxavfsizlik masalasini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kuch tuzilmalarining axborot almashinuvi samaradorligini oshirish uchun zamonaviy sun’iy yo‘ldosh texnologiyalari va xavfsiz aloqa tizimlarini joriy etish zarur. Kiberxavfsizlikni ta’minalash maqsadida maxsus bo‘linmalarni rivojlantirish va xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish talab etiladi. Zamonaviy texnologiyalarni modernizatsiya qilish bo‘yicha mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. Dronlar, havo mudofaa tizimlari va razvedka texnologiyalarini mahalliylashtirish orqali harbiy texnikani zamonaviylashtirish O‘zbekiston mudofaa salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Qo‘sma mashg‘ulotlarni ko‘paytirish va ularda xalqaro miqyosda faol ishtirok etishni ta’minalash talab etiladi. NATO va BMT doirasidagi mashg‘ulotlarda ishtiroknii kengaytirish, kuch tuzilmalari o‘rtasida muntazam mashg‘ulotlar tashkil etish orqali hamkorlikni mustahkamlash mumkin.

O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar bilan harbiy hamkorlikni kengaytirishi zarur. BMT va NATO doirasida strategik hamkorlikni rivojlantirish orqali xalqaro standartlarni milliy tizimga integratsiya qilish kerak. Qozog‘istonning xalqaro harbiy mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishi O‘zbekiston uchun tajriba sifatida xizmat qilishi mumkin. Moliyaviy va moddiy resurslarni samarali taqsimlash orqali harbiy tuzilmalarni zamonaviy vositalar bilan ta’minalash lozim. Tabiiy va texnogen ofatlarga javob berish uchun ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirligi va qurolli kuchlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish talab etiladi. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat milliy

xavfsizlikni mustahkamlash, balki O‘zbekiston mudofaa tizimini mintaqaviy xavfsizlikka ham hissa qo‘shuvchi yetakchi tizimga aylantirishga xizmat qiladi.

Tavsiyalarni hayotga tatbiq etish orqali O‘zbekiston mintaqada yetakchi harbiy salohiyatga ega bo‘lgan davlat sifatida mustahkam o‘rin egallashi mumkin.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonning kuch tuzilmalari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish borasida bir qator ijobjiy qadamlar tashlanmoqda. Harbiy operatsiyalarni muvaffaqiyatli tashkil etish va amalga oshirish uchun turli kuch tuzilmalari o‘rtasidagi muvofiqlikni kuchaytirish, yagona boshqaruvi tizimini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy xavfsizlik tahdidlari va gibrildi urushlar sharoitida bu hamkorlik milliy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatda qo‘shma mashg‘ulotlar va o‘quv dasturlarining muntazam o‘tkazilishi turli tuzilmalarning birgalikdagi harakatlarini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynamoqda.

Xususan, axborot almashinushi va tezkor qaror qabul qilish tizimlarini rivojlantirish borasida sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar va qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash O‘zbekiston mudofaa salohiyatini oshirishda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, kiberxavfsizlikni kuchaytirish, texnologiyalarni modernizatsiya qilish, resurslarni samarali taqsimlash va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish sohalarida hamon muammolar mavjud. Ushbu muammolarni hal etish orqali O‘zbekiston nafaqat milliy xavfsizlikni ta’minlaydi, balki mintaqadagi eng samarali va texnologik rivojlangan harbiy tizimlardan biriga ega bo‘lishi mumkin. Xalqaro tajriba va texnologik innovatsiyalarni joriy qilish ushbu maqsadlarga erishishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonning bu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlari mamlakatning xalqaro maydonidagi obro‘sini oshirishga va mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashga hissa qo‘shadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). *Qurolli kuchlarni qurollantirish bo‘yicha Davlat komissiyasining tashkil etilishi to‘g‘risida Farmon*. Toshkent: Prezident matbuot xizmati.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022). *Qurolli kuchlar sohasidagi milliy qonunchilik bazasini tizimlashtirish bo‘yicha qaror*. Toshkent: Vazirlar Mahkamasi.
3. Xitoy Xalq Respublikasi Mudofaa vazirligi. (2024). *O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bilan hamkorlikdagi harbiy-tibbiyot dasturlari va o‘quv mashg‘ulotlari bo‘yicha hisobot*. Pekin: Xitoy Mudofaa vazirligi.

4. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH). (2024). "Toshkent-2024" xalqaro harbiy tibbiyot konferensiysi materiallari. Toshkent: MDH matbuot xizmati.
5. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. (2024). *Qurolli kuchlar kinologiya bo'linmalarini rivojlantirish dasturi*. Toshkent: Mudofaa vazirligi.
6. Hytera Communications Corporation. (2024). *O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari uchun zamonaviy radioaloqa tizimlari: Hamkorlik natijalari va istiqbollari*. Shenchjen: Hytera.
7. NATO. (2023). *Collective Security and Defense Strategies in Central Asia*. Brussels: NATO Publications.
8. BMT (2023). *International Military Cooperation and Cybersecurity Measures*. New York: United Nations Security Council Reports.
9. Qozog'iston Respublikasi Mudofaa vazirligi. (2023). *Harbiy hamkorlik tajribasi va strategik rejallashtirish bo'yicha hisobot*. Ostona: Qozog'iston Respublikasi Mudofaa vazirligi.
10. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. (2023). *Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda idoralararo hamkorlik*. Toshkent: Ichki ishlar vazirligi.